

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING AHAMIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI

*ARTIQOVA ULDONA ISHMO'MINOVNA
MUROTOVA FIRUZA TASHPULATOVNA
SHUKUROVA SOJIDA PANJIYEVNA
XO'SHBOQOVA DINORA ALISHEROVNA*

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlash va maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim va tarbiya, o'qitish usullari, Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha ma'lumotlar kiritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, maqsad, vazifa, mazmun, davlat talabi, maktabga tayyorlash, rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, aqlan rivojlanish, ma'nan rivojlanish, jismonan rivojlanish.

Абстрактный: В данную статью включены сведения об обучении и обучении в дошкольных и дошкольных образовательных организациях, методах обучения, обеспечении выполнения целей и задач, поставленных в развитии дошкольников и процессе их подготовки к школе.

Ключевые слова: образование, цель, миссия, содержание, государственная потребность, школьная подготовка, развитие, дошкольное образование, интеллектуальное развитие, духовное развитие, физическое развитие.

Abstract: This article includes information on education and training in preschool and preschool education organizations, teaching methods, ensuring the fulfillment of the goals and tasks set for the development of preschool children and the process of preparing them for school.

Key words: education, goal, mission, content, state requirement, school preparation, development, preschool education, intellectual development, spiritual development, physical development.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual

me'rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha talimni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha ta'limning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha talim va sog'lomlashtirish tashkilotlari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'yadi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy me'rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, uzining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hududlarining demografik, ijtimoiy- iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, Maktabgacha ta'lim

tashkilotlarini tashkil etish va tugatish qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Qonunga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlari ularning yo'nalishlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Umumiy turda maktabgacha talim tashkilotlari;
- Kop tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha talim tashkilotlari ;
- Inkulyuziv guruhlariga ega maktabgacha talim tashkilotlari ;
- Qo'shma tipdagi maktabgacha talim tashkilotlari.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish tartibi, ularni bir tashkilotdan ikkinchisiga ko'chirish, tashkilotdan chiqarish davlat tashkilotlarida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa, tashkilotning Ustavi bilan belgilanadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishda kamchiliklari mavjud bo'lgan bolalar uchun maxsus Maktabgacha ta'lim tashkilotlari yoki guruhlar tashkil etish ham "Maktabgacha ta'lim muassasasi to'grisidagi Nizom"da ko'rsatib o'tilgan.

Har bir sohada bo'lganidek, maktabgacha ta'lim tizimida ham maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tegishli ma'lumotga, kasb tayyorgarligiga hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar ggedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadirlar.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari tomonidan pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, kasb sifatini raqobatbardoshlik darajada saqlab turish ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining o'quv pedagogik vazifasi maktabgacha ta'lim turiga davlat talablaridan kelib chiqqan holda Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni, mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan yangi dasturlar, metodik qo'llanmalar, didaktik materiallarni joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Pedagogik kadrlarning o'zaro munosabatlari hamkorlik, demokratiya, hurmat, e'tirof pedagogikasi asosiga quriladi. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha tarbiya konsepsiyasida ham belgilangan bosh maqsad va vazifalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun yozilgan yangi dasturlar mazmunini amalga oshirishga qadar aniqlana boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi bolaning o'sishidagi psixologik va etnopsixologik xususiyatlarga asoslanib, ta'lim- tarbiya tizimida odob, estetik, musiqiy-badiiy, jismoniy tarbiyani birinchi o'ringa chiqarish, grammatikani u qadar majburiy o'rgatmaslik lozim bo'ladi. Shunday yo'l bilan maqsad asosida vazifa va usullar belgilanadi va rivojlantiriladi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash zarurki, davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda tub islohotlarni olib bordi. Xususan ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi va ta'lim sohasidagi boshqa qonunlar buning yakkol dalilidir.

Bulardan kuzlangan maqsad yoki davlatimizga kerakli bo'lgan etuk, har tomonlama kamol topgan barkamol shaxsni tarbiyalash va ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga imkoniyatlar yaratib berishdan iborat qilib qo'yilgan. Albatta, bu xayrli ishlarni ta'lim-tarbiyani birinchi bo'g'ini bo'lgan oila, maktabgacha ta'lim tashkilotida olib borish maqsadga muvofiqdir, deb ko'rsatib o'tilgan. Shunday ekan, biz birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibor berishimiz, uni yetuk malakali mutaxassislar bilan boyitishimiz zarurdir. Tarbiyalanayotgan bolalarni har tomonlama bilimli, odob-axloqli qilib tarbiyalash bizning oliy maqsadimizdir.

Maktabgacha ta'limning maqsadi bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabga o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'limning vazifalari: bolalarni xalqning boy milliy, adaniy, tarixiy merosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy davrida maktabgacha ta'lim bosqichida quyidagicha o'zgarishlar yuz bermoqda: maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashib bormoqda; tashkilotlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi shakllariga o'tmoqda; nodavlat tashkilotlar tarmoqlari kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari tatbiq etilmoqda; kadrlar malakasini oshirish tizimi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muqobil shakllari tatbiq etilmoqda. Moliya institutlari ishtirokida investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining innovatsion va eksperimental faoliyati kengaymoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari» orqali nazorat qilinadi. Davlat talablaridan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmunining asosiy yo'nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo'lib u davlat hujjati sifatida e'tirof etiladi.

Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qadam» dalat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi.

Davlat talablari asosida tuzilgan «Ilk qadam» dalat o'quv dasturiga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari hamda o'zlari uchun turli sohalar bo'yicha dasturlar, qo'llanmalar, tavsiyalar, qiziqarli kitoblar, aqlan va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turli-tuman o'yinchoqlar va ta'lim tarbiya

qurollari yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to'la-to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalariga tayangan holda «Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi» fanining maqsadi talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning metod va usullari bilan tanishtirishdan iborat.

«Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi» fani quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- talabalar maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini yaxshi bilishlari;
- bolalarning maktab ta'limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi tushunchalarini bilishlari;
- bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashni aniqlash yo'llari va metod, usullari to'g'risida bilimga ega bo'lishlari lozim.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish Maktabgacha ta'lim tizimining boshlang'ich bo'limi bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi vazirligi bu dasto'rni respublikamizning o'ziga xos tomonlarini: iqlimi, jugrofiy, iqtisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini hisobga olib, uni qayta ishlab chiqdi. Dastur tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar hajmini o'z ichiga oladi. U maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani pedagog-tarbiyachi amalga oshiradi. U pedagogik jarayonda markaziy o'rinni egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi uz sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda mutaxassislik bo'yicha fanlarni jumladan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Ilk qadam» dalat o'quv dasturini Davlat ta'lim standartlarini, «Bolalarni maktabga tayyorlash» fani va boshqalarni puxta egallagan bo'lishi lozimdir. Ayniqsa, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlangan tarzda tarbiyalash «Bolalarni maktabga tayyorlash» fanining o'rni juda kattadir.

Bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash bosqichlari. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, asosan, maktab ta'limiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni

rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish.
2. Jismonan rivojlantirish.
3. Ma'nan rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari sog'lom va yetuk, maktabga, o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash fani falsafa fani bilan bog'liq ekan ushbu fanning metodologik jihatdan asoslaydi. Yosh psixologiyasi har bir yoshda bolaning yoshga xos xususiyatlarini o'rganadi. Birinchi navbatda bola ruhiyati markaziy o'rin tutib, bu albatta, psixologiyani bilish nazariyasi bilan bog'liqdir. Bundan ko'rinib turibdiki, "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" fani barcha fanlar bilan chambarchas bog'langandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davlat ta'lim standartlari.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. - Toshkent, 2018.
3. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
4. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.
5. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. - Toshkent, 1997.
6. Melikboboyevich, S. U., QIZI, X. R. N., & QIZI, X. L. F. (2024). BOLANING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGI TAHLILI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 457-465.
7. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, X. M. R. Z., & QIZI, X. M. T. V. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALRDA IRODANI TARBIYALASH MASHQLARI VA TRENINGLAR. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(3), 6-12.
8. MELIKBOBOYEVICH, S. U., O'G'LI, M. A. A., & O'G'LI, N. F. B. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI, OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 33(2), 228-234.
9. Melikboboyevich, S. U., Abdusattorova, X. G., & Abdushukurovna, A. S. (2024). BOLALARNING XOTIRASINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR VA ULARDAN FOYDALANISH. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(2), 117-124.
10. Melikboboyevich, S. U., Abdusattorova, X. G., & Abdushukurovna, A. S. (2024). BOLALARNING XOTIRASINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR VA ULARDAN FOYDALANISH. *NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI*, 1(2), 117-124.